

Korrupsiyaga qarshi kurash omillari



Joriy yilning 10 - mart kuni "Yer resurslarini boshqarish" fakulteti jamoasi bilan universitetning Korrupsiyaga qarshi kurash va komplains nazorat tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i A.Gapparov ishtirokida "Ta'lim sohasida korrupsiyaga qarshi kurash - davr talabi" mavzusida davra suhbatini o'tkazildi. Barchamizga ma'lumki, korrupsiya - bu jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir. Mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to'sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otishi uchun sharoit yaratib beradi. So'nggi yillarda, oliy o'quv yurtlariga qabul jarayonlarining shaffofligini ta'minlash, ta'limdagi korrupsiya va poraxo'rlikning oldini olishga ham jamiyatda astoydil kirishilgan. Davra suhbatida A.Gapparov bo'limning asosiy vazifalari hamda bu yo'nalishda universitetda amalga oshirilayotgan ishlar haqida batafsil ma'lumot berdi. Tadbir so'ngida barcha professor-o'qituvchilar o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi.



YRB fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini H. Eshova axboroti